



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING  
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION  
TADQIQOTLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
VA RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI:  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR  
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK  
ANJUMAN MATERIALLARI  
TO'PLAMI**



15-16-MAY  
2026-YIL



Google  
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR  
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami  
(2026-yil 15-16-may)*

**JIZZAX-2026**

2. Xoljigitov D., Xolmanova K., Alimov S. MATEMATIK TIZIMLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI //Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 112-114-betlar.

3. Xoljigitov D., Xolmanova K., Alimov S. MATEMATIK TIZIMLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI //Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 112-114-betlar.

4. Xoljigitov D., Xoliqova S. IQTIDORLI TALABALARGA MO'ljALLANGAN O'QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO'RSATUVCHI DASTURIY TA'MINOTNING TARKIBIY TUZILMASI //Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 384-387-betlar.

5. Sherqulova D., Xoljigitov D. INFORMATIKA FANINI MAKTABLARDA O'QITISHDA O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA DAVLATLARIDAGI FARQLARVA O'XSHASHLIK LAR //Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – №. 1. – S. 466-470.

6. Xoljigitov D., Ahmedov A. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MATEMATIK TIZIMLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 405-408.

7. Xoljigitov D., Shamsiddinov O. O'QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO'RSATUVCHI DASTURIY VOSITALARNING AVZALLIKLARI //Ilmiy amaliy konferensiya. – 2025. – T. 1. – No 1. – 375-379-betlar.

8. Yuldashev J., Xayrullayeva NJ O'qituvchi shaxsiyati ta'lim va tarbiyalashning asosiy omili //Sci and Education. – 2026. – T. 7. – No 4. – 580-585-betlar.

## **ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR**

**XOLMATOV JAVLON YUSUPOVICH**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o'qituvchisi,  
[javlonxolmatov@jbnuu.uz](mailto:javlonxolmatov@jbnuu.uz)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada elektron ta'lim muhitida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida elektron ta'lim muhitining didaktik loyihalaniishi, o'qituvchining raqamli-metodik kompetentligi, talabaning mustaqil ta'lim faoliyatiga tayyorligi, modullashtirilgan kontent, monitoring va feedback tizimi hamda hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyatning metodik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, metodik tizim samaradorligini baholashning kognitiv, analitik, kreativ va refleksiv yo'nalishlari hamda ularning indikatorlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron ta'lim muhiti, intellektual kompetentlik, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, metodik tizim, raqamli pedagogika, blended learning, flipped classroom, gamifikatsiya, learning analytics, refleksiv monitoring, kreativ fikrlash, analitik tafakkur, e-portfolio, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Zamonaviy jamiyatda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tub sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, elektron ta'lim muhitining (e-learning environment) keng joriy etilishi ta'lim jarayonini faqat axborot uzatish tizimi sifatida emas, balki shaxsning intellektual, kognitiv va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi murakkab pedagogik tizim sifatida qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, elektron ta'lim sharoitida intellektual kompetentlikni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim tizimlarining samaradorligi ko'proq texnologik vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning pedagogik maqsadlar bilan integratsiyasi darajasi bilan belgilanadi [1]. OECD tadqiqotlarida esa raqamli ta'lim muhitida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda o'qituvchining raqamli kompetentligi hamda o'quv jarayonini individualizatsiya qilish muhim omil sifatida qayd etiladi [2].

Elektron ta'lim muhitida intellektual kompetentlikni rivojlantirish bir qator tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ular orasida raqamli infratuzilmaning mavjudligi, LMS (Learning Management System) platformalarining samarali qo'llanilishi, interaktiv va adaptiv ta'lim resurslarining ishlab chiqilishi hamda talabaning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, elektron ta'lim muhitida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslash zamonaviy pedagogika fanining muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri bo'lib, u raqamli jamiyat uchun yuqori intellektual salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi [2].

Elektron ta'lim muhitida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizim samarali ishlashi uchun muayyan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi zarur. Ushbu shart-sharoitlar metodik tizimning ichki mexanizmlarini real ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'qituvchi va talaba faoliyatini muvofiqlashtirish, elektron kurs mazmunini boshqarish hamda natijalarni monitoring qilish imkonini beradi. Shart-sharoitlar yetarli darajada shakllanmasa, hatto mazmunan mukammal elektron kurs ham kutilgan pedagogik natijani bermasligi mumkin.

Birinchi shart – elektron ta'lim muhitining didaktik maqsadga mos loyihalanishidir. Elektron muhit faqat fayllar joylashtiriladigan texnik maydon sifatida emas, balki o'quv faoliyatini boshqaruvchi, interaktiv topshiriqlarni tashkil etuvchi, teskari aloqa beruvchi va natijalarni tahlil qiluvchi tizim sifatida ishlab chiqilishi kerak.

Ikkinchi shart – o'qituvchining raqamli-metodik kompetentligidir. O'qituvchi elektron ta'lim vositalaridan texnik foydalanishni bilish bilan cheklanmasligi, balki ularni didaktik maqsadga mos tanlash, elektron kurs mazmunini loyihalash, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish, talaba faoliyatini kuzatish va natijalarni pedagogik tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi zarur.

Uchinchi shart – talabalarining mustaqil o'quv faoliyatiga tayyorligini shakllantirishdir. Elektron ta'lim muhitida talaba o'z vaqtini rejalashtirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, resurslarni izlash, o'z natijalarini tahlil qilish va o'zini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

To'rtinchi shart – o'quv kontentining modullashtirilgan va darajalangan bo'lishidir. Elektron ta'limda o'quv materiallari katta hajmda va uzluksiz matn shaklida berilganda talabaning e'tibori susayadi, kognitiv yuklama ortadi.

Beshinchi shart – monitoring va feedbackning uzluksizligidir. Intellektual kompetentlik bir martalik nazorat orqali emas, balki jarayon davomida kuzatiladigan rivojlanish dinamikasi orqali baholanadi. Feedback esa umumiy "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" xabaridan iborat bo'lmasdan, xato sababi, tuzatish yo'li va keyingi rivojlanish tavsiyasini o'z ichiga olishi zarur.

Oltinchi shart – elektron ta'lim muhitida hamkorlik va muloqotning tashkil etilishidir. Intellektual kompetentlik faqat individual o'rganish jarayonida emas, balki munozara, dalillash, fikr almashish, jamoaviy loyiha va tengdoshlar bahosi orqali ham rivojlanadi.

Elektron ta'lim muhitida intellektual kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizim samaradorligini baholash an'anaviy baholashdan kengroq mazmunga ega. Bu jarayonda faqat yakuniy bilim natijasi emas, balki talabaning fikrlash uslubi, muammo yechish strategiyasi, ijodiy yechim yaratish qobiliyati, mustaqil o'rganish faolligi va refleksiv o'zgarishlari ham hisobga olinadi. Shu sababli baholash tizimi kompleks, ko'p mezonli va dinamik xarakterga ega bo'lishi kerak.

Baholashning birinchi yo'nalishi kognitiv o'zlashtirishni aniqlashdan iborat. Bunda talabaning asosiy tushunchalarni bilishi, ularni izohlashi, misollar bilan asoslay olishi va sodda vaziyatlarda qo'llashi baholanadi. Elektron muhitda bu jarayon avtomatik test, qisqa javobli savol, tushuncha xaritasi, nazariy mini-esse va interaktiv mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalish analitik faoliyatni baholashdir. Bunda talabaning muammoni qismlarga ajratishi, dalillarni solishtirishi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashi, ma'lumotlarni guruhlashi va asoslangan xulosa chiqarishi baholanadi. Analitik baholash uchun keys-stadi, qiyosiy jadval, muammoli forum, interaktiv tahlil topshirig'i va ekspert rubrikalaridan foydalaniladi.

Uchinchi yo'nalish kreativ faoliyatni baholashdir. Bunda talabaning yangi g'oya ilgari surishi, loyiha mahsuloti yaratishi, muammoni noan'anaviy yondashuv asosida hal qilishi va natijani vizual yoki raqamli shaklda taqdim eta olishi aniqlanadi. Kreativ baholashda aniq mezonlar bo'lishi zarur: yangilik, asoslanganlik, amaliy ahamiyat, tuzilish sifati va taqdimot madaniyati.

To'rtinchi yo'nalish refleksiv faoliyatni baholashdir. Bu yo'nalish talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini ko'rishi, rivojlanish yo'nalishini belgilashi va keyingi o'quv strategiyasini rejalashtirishi bilan bog'liq. Refleksiv baholash uchun e-portfolio, o'z-o'zini baholash varaqasi, refleksiv esse, learning diary va individual rivojlanish xaritasi qo'llanadi.

Metodik tizim samaradorligini baholashda mezon va indikatorlar aniq belgilanishi zarur. Mezon umumiy baholash yo'nalishini bildirsa, indikator ushbu mezonning kuzatiladigan belgilarini ifodalaydi. Masalan, analitik kompetentlik mezoni uchun indikatorlar sifatida dalillarni ajratish, taqqoslash, xulosa chiqarish va yechimni asoslash keltirilishi mumkin.

Elektron kurslar va topshiriqlar tizimini loyihalashda kognitiv, analitik, kreativ, refleksiv va diagnostik bloklarning uzviyligi muhim ekani ko'rsatildi. Topshiriqlarni I,

II va III darajada tashkil etish talabani bilimdan tahlilga, tahlildan ijodiy yechimga, ijodiy yechimdan reflektiv rivojlanishga o'tishini ta'minlaydi.

Paragrafda elektron ta'lim muhitida talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model maqsadli, motivatsion-tashxislash, mazmunli-faoliyatli, jarayonli va baholash-natijaviy komponentlardan iborat bo'lib, u talabani intellektual rivojlanishini boshqariladigan, monitoring qilinadigan va takomillashtiriladigan jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, intellektual kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalar tizimi aniqlashtirildi. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, gamifikatsiya, blended learning, flipped classroom, collaborative learning, e-portfolio va learning analytics elektron ta'lim muhitida kognitiv, analitik, kreativ va reflektiv komponentlarni rivojlantirish uchun samarali pedagogik vositalar sifatida asoslandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. UNESCO. Digital Learning and Transformation of Education. – Paris, 2023.
2. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2022.
3. Siemens G. Connectivism and Digital Learning. – Educational Technology Journal, 2021.
4. **Xolmatov J.Y.** Intellektual kompetentlikni rivojlantirishda mulohazalar algebrasi bo'limi topshiriqlarini Bloom taksonomiyasi asosida yaratish // Journal of Contemporary World Studies. Vol. 1 No. 7, 2025. ISSN: 3030-3311. – 5 b.
5. **Xolmatov J.Y.** Intellektual kompetentlik intellektual qobiliyatlar va ijodkorlikning birligi sifatida // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2024. – 31(2). – B. 103–106.
6. **Xolmatov J.Y.** Bo'lajak AKT mutaxassislarini tayyorlashda intellektual kompetensiyalarni shakllantirish // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va innovatsion tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami. – 2024. – Tom 2, №3. – B. 42–44.

### **К ВОПРОСУ ОБ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ**

**старший преподаватель кафедры английского языка Конистерова  
Е.А.**

Тульский государственный педагогический университет имени Л.Н.  
Толстого, Россия  
[konisterova@mail.ru](mailto:konisterova@mail.ru)

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы о важности производственной педагогической практики как обязательного элемента становления будущего педагога; анализируются возможности, преимущества и трудности внедрения института наставничества в качестве основной формы организации педагогической практики студентов.

**Ключевые слова:** производственная педагогическая практика, будущий учитель, наставничество.